

ДИЛДОРА ТУРДИЕВА

КУЗ  
ХАЁЛИ

*Шеърлар*

МАЖБУРИЙ  
НУСХА



**ЯНГИ АСР АВЛОДИ**

Тошкент

2013

Алишер Навоий Ташкент Амристон 198	105 А
--	----------

УЎК: 821.512.133-1

КБК: 84(5Ў)7

Т - 88

*- ўзб. аср ахло.*

**Турдиева, Дилдора**

Куз хаёли: шеърлар / Д.Турдиева. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. 32 б.

ISBN 978-9943-27-145-6

«Куз хаёли» номли ушбу тўпламдаги шеърлар, аввало самимийлиги, беғуборлиги билан кишини қувонтиради.

Дилдора келажакда сўз айтиш, шеър орқали туйғуларини қорозга тушириш, ўқувчи қалбига етказа олиш бахтига ўз устида тинимсиз ишлаш, кўп ўқиш орқали зришади, дея ишонамиз.

УЎК: 821.512.133-1

КБК: 84(5Ў)7

Ушбу китобни нашр этишида ҳомийлик қилган Баҳодир Раҳимов ҳамда Баҳодир Нормирзаевларга муаллиф ўз миннатдорчилигини изҳор этади.

ISBN 978-9943-27-145-6

© Дилдора Турдиева, «Куз хаёли». «Янги аср авлоди», 2013 йил.

2014/8 А 606	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
--------------------	--

10 42190  
0

## **ИЖОД ОЛАМИДА УЛҒАЙГАН ИЖОДКОР**

Дилдорахон Турдиева 1987 йил 15 феврал куни Фарғона вилояти Риштон туманида туғилган. Шеърлари туман газеталарида мунтазам чоп этилиб туради.

Дилдорахоннинг “Соғинч”, “Бир олма оқиб келар”, “Куз хаёли” каби шеърлари ва кичик ҳажмли ибратли ҳикоялари кўпчилик адабиёт ихлосмандлари қалбидан муносиб ўрин олган.

Унинг ижодида ҳаёт ва табиат мавзуси алоҳида синчковлик билан ёритилган. Дилдора ёш бўлишига қарамай, ўзига хос ташбеҳлар орқали фикрларини гўзал ифода эта олади.

“Куз хаёли” номли бу муъжазгина шеъррий тўпلامнинг нашр этилиши Дилдорахоннинг ижодий имкониятлари, изланишлари янада кучайишига, шеърят талабларини чуқурроқ ҳис этишига таъсир этади, деган умиддаман.

Дилдора Турдиевага ижодий парвозлар тилайман.

*Инобатхон МИРЗАРАҲИМОВА,  
Халқ маорифи аълочиси,  
Риштон ХТМФМТТЭ бўлими мудираси*

## **БИР ОЛМА ОҚИБ КЕЛАР**

Тўлқинлар бағрида ўйноқлаб шодон  
Оқиб келаётир оқизоқ олма.  
Атласга бурканган қизлар сингари  
Товланиб кўз олар қизил-оқ олма.  
Қўл чўзиб интилиб олмани олдим,  
Келинчак юзидай тиниқ ва текис.  
Майсалар устига ўтирдим беҳол,  
Мағлуб этди мени оҳ, ажиб бир ҳис.  
Ҳайрат-ла тикилиб боқдим суқ билан,  
Кўзим тўймас сира, қандай ажойиб.  
Бирдан ҳуркиб қочдим мисоли оҳу,  
Узоқда бир йигит турар жилмайиб.

## **СОҒИНЧ**

Эй, Сабо, илтимос, шўхлигингни қўй,  
Сочларим тортқилаб, юзим силама.  
Вужудим кул бўлди ҳижрон ўтида,  
Меҳрга зорман-ку. Меҳр тилама.  
Не керак гулларнинг хушбўй ислари,  
Кўкдан келтирганинг майин ҳарорат.  
Қанийди ёримдан етказсанг хабар,  
Келтирган бўлардинг қувонч ва омад.  
Ҳой эркам, бунчалар тумшайиб олдинг,  
Сенга ҳам бу меҳрим етар-ку, аммо  
Умримдан кечардим ҳаққи рост сўзим,  
Узоқдан ёримни бир кўрсайдим, оҳ!

## **НЕГА ЖИМСАН?**

Нечун жимсан гўё гунг, соқов,  
Майли, индамай қўявер, фақат  
Севмайман дема, оғрийдилдим,  
Этурман мен ҳам унга итоат.  
Сен жимсан. Ҳамон ўйлайсан нени,  
Раҳминг келмасин, ўтинчим ҳам шу.  
Қийнама ўзинг. Менга керакдир  
Муҳаббат деган ўлмас бир туйғу.

## **ҚАЙТИШ**

Онажон, қайтпаман ортга жимгина,  
Гўзал туйғуларга силкиб этагим.  
Эгнимга ташладим бир қуроқ жанда,  
Ниҳоят тугайди гўзал эртагим.  
Муҳаббат – кўчада сотилган гуллар,  
Садоқат – эскирмай тутилган мато.  
Ишонч – қоғозларга муҳрланган сўз,  
Туғилмоқнинг ўзи аслида хато.

## **КЕЧИРИНГ МЕНИ**

Кўнглингиз оғритдим, кечиринг мени,  
Онангиз бош эгиб кетди уйимдан.  
Мендан хато ўтди, энди ўзингиз  
Кетмайин қолдингиз хаёл, ўйимдан.  
Қалбимни тирнайди бир савол бебош,  
Мен излаган ўша сизмиди, балким.  
Кўнглимда кўтарди армон гули бош,  
Сиздай энди мени севмайди ҳеч ким.

## **КЎНГЛИМ**

Кўнглим, у кўнгилга бошқа кўнмаймиз,  
Яна биз деб келса ёлғондан суйиб.  
Муҳаббат қасрига асло бормаймиз,  
Севгининг ўтида кул бўлдик куйиб.  
Кўнглим, у кўнгилдан узилиб кетдик,  
Япроғи сочилган мисли атиргул.  
Нафрат-ла энг баланд чўққига етдик,  
Айрилиқлар қолди эсталик учун.  
Кўнглим, у кўнгилга алданиб қолдик,  
Тақдирда бор экан, не ҳам қилардик.  
Барчаси не бўлса худога солиб,  
Аллоҳдан унга биз жазо тилайлик.

## **МЕН ГУЛ ДЕМАСМАН**

Мени кўриб бир кун олдимга келдинг,  
Соғлигим сўрадинг уялибгина,  
Бир хат тутиб дединг аста  
Муҳаббатим ҳаққи ўйлаб кўргин-а.  
Шундан бери пойлаб йўлимни ҳар кун,  
Нега гул тутасан, мен гул демасман.  
Чин севги ўлчанмас мол-дунё билан,  
Севгинг чин бўлмаса дилдор эмасман.



## КУЗ ХАЁЛИ

Соғиниб боряпман сизни тобора,  
Болалигим ўтган азиз кўчалар.  
Ой ҳарир рўмолин қўшқўллаб ўтган,  
Сутдан-да оқ-оппоқ ойдин кечалар.  
Соғиниб боряпман ўшал дамларни,  
Вужудим яйратган кўклам навосин.  
Тилларанг япроқлар қўйнида бу кун  
Эзилиб тингларман армонлар сасин.  
Ҳайратга солганди ўшанда мени  
Инсонлар кўзида порлаган қуёш.  
Ўтти ловулатган қизлар ялласи,  
Айвонга осилган тиканак ва тош.  
Ёш эдим, қалбимда ёнди аланга,  
Томиримда оқарди олов.  
Дадил йўл олгандим забт этмоқ учун  
Бахтлар водийсига қўлимда асов.  
Юрагим йиғлайди титраниб дилгир,  
Юзимга уфурар қиш ҳам ҳавосин.  
Сочимга қўнади қор парчалари,  
Бир тингласам қани ёшлик навосин.  
Оҳ, ёшлигим, таъзим этаман сизга,  
Аста ўтиб борар энди умримиз,  
Соғиниб яшашдан илож йўқ ўзга.

## **СЕВГИ ҚИТЪАСИ**

*Ўзбекистон халқ шоири*

*Абдулла Ориповга бағишланади*

Сервиқор Ҳимолай бағрига бир қиз  
Елкасида кўза оҳиста келди,  
Уялиб тонг мисол сулув бир малак,  
Сув баҳона ёрин қошига елди.  
Икки қалб учрашди соҳилда ёлғиз,  
Ташаккурин айтиб қувноқ булоқча.  
Иккиси унутди дунё ғамини,  
Келди шивирлаши аранг қулоқча.  
Уларни яширди бағрига тоғлар,  
Қувнаб рақс тушар булоқча шодон.  
Севган кўнгил албат бир кун севилур,  
Гар ҳукмрон дилда ишонч ва иймон.  
О, гўзал Ҳиндистон, мафтункор диёр,  
Она ер шарининг нурли нуқтаси.  
Дунё яралмишки яшар муҳаббат,  
Куйла қўшиғингни, севги қитъаси.

\* \* \*

Мени йўқсил деманг, сираям деманг,  
Сиздай ой бор экан, менда қуёш бор.  
Наҳотки айбим шу – сизни суйганим,  
Сиз ёр бўлмасангиз, худо менга ёр.  
Гумоннинг пойида ишончни кўриб,  
Ёрилтош ёрилиб кетмади нечун.  
Жин кўчаларида тақдир деганни,  
Муҳаббат йирғайди титраниб беун.  
Бардоши етарми бунга тоғларнинг,  
Осмон ҳам эгилар яна бир қанча.  
Барибир алдамчи асли бу дунё,  
Менинг ишонганим шугина гунча.  
Гунчами деб кулманг лабингиз буриб,  
Унинг бағрида янги ҳаёт бор.  
Митти деманг сира, қалбида ёрим  
Оламга сирмаган ажиб баёт бор.

## **ИШОНЧ НУРЛАРИ**

Қалбингиз тўрида ўзга жонона,  
Анинг пойгагида мен бечора қиз.  
Тош синдирар эмиш жавоҳирни ҳам,  
Кимнинг қадри улуғ билармидингиз.  
Сизни кўп ўйладим, ўйлаб толмадим,  
Фақат кутиб кўзлар чарчади холос.  
Энтикиб-энтикиб юрак қолди жим,  
Кўзларимда сўнди шодлик, эҳтирос.  
Сиздан сўрамайман кўп нарсаларни,  
Меҳрингизни беринг, руҳим унга зор.  
Тингланг мажнунсифат бир қиз ўтинчин,  
Сизни унутишни истамайман ёр.  
Шунчалик тормиди ишқнинг йўллари,  
Гумонлар кўнглимга етказар озор.  
Ишқнинг наволари бунчалар маҳзун,  
Ишонч нурларидан барчаси бекор.

## МЕНГА ИШОН

Суриштира мени, қўйгил азизим,  
Менга тикилмасин одамлар кўзи.  
Фақат менга ишон, унутма ҳеч ҳам,  
Дунёда бегуноҳ Аллоҳнинг ўзи.  
Муҳаббат онамдир,  
Виждон – падарим,  
Муҳаммаддан мерос иймон – ўзлим.  
Шабнам кучоғида яшадим токи,  
Учрагунча сен – ширин сўзлим.  
Чиройда қумушга тенглашолмасман,  
Лек вафодан ундан ўзаман албат.  
Беклардан улугсан, менинг бегим,  
Шўх қалбимга сиртмоқ солмиш муҳаббат.  
Майлиди севгим сойда оқмасанг,  
Зухро деб ўртанган Тоҳир сингари.  
Мажнун бўлмасанг-да ишқимда менинг,  
Бирга яшасак бас гумондан нари.  
Одамлар бор азизим, фариштадай пок,  
Одамлар бор азизим, иблисдан-да паст,  
Йўғингни кўради беролмас аммо –  
Борингни кўргач эса яна қилар қасд.

## ШАБНАМ ЖИЛОСИ НОНИН А. ШИША

Юрагим тубида кафтдек лаҳча чўғ,  
Куйдириб боради этгудай адо.  
Чидолмай қоламан бундай азобга,  
Унда дард исёни беради садо.  
Миямда рақс тушар фикрлар ғужғон,  
Мен бир сайёд. Улар тоғдаги кийик.  
Тўлдириб косага тўйиб ичсам май,  
Қалбимда яралур ажиб гўзаллик.  
Сўнгра ёниб, куйиб ишқ азобида,  
Ўзгаларга қувонч улашиб, аммо  
Ҳаётни ўлчайман ўз қаричим-ла,  
Чинга айлантириб афсона рўё.  
Қуёш бош кўтарар қора тун ҳайдаб,  
Кўнглимда яшнайти баҳорий сурур.  
Шабнамга битарман ёрқин мисралар,  
Ўша сиз билган дард ШЕЪР деб аталур.

## **ҚАЛБ САДОСИ**

Сочларим арқонга айланмаса гар,  
Мақсадлар бўйнига камон солгудай.  
Шиддатим пайконга тенглашмай қолса,  
Қабоҳат юрагин ўйиб олгудай.  
Ўзим учун фақат тўкилса кўзёш,  
Ширинроқ луқма деб умрим бой берсам.  
Ўзлим англамай ўзгаларни мен,  
Сочган садақасин миннатдор терсам.  
Мен ҳам инсонмидим, инсон бўлдимми?  
Ҳаёт гармселида ғунча сўлдимми?  
Кўнглимдан сўрайман айтгил, юрагим,  
Халқимга муносиб фарзанд бўлдимми?

## **ИЗЛАДИМ**

Айтгил, эй, Аллоҳим гуноҳим недир,  
Гўзал тонг васлига этдинг мени зор.  
Офтобни соғинар бу маъсум кўзлар,  
Пешонамга битдинг андуҳни бисёр.  
Сенга ёқай дедим, дўсту ғанимни  
Авайлаб яшайвердим бирдай сизлаб.  
Кўзда нур қолмади, танимда мадор,  
Одамлар кўнглида иймонни излаб.

## ЙЎЛЛАР

Йўллар...

Бу кенг дунёга мезбондир, мезбон,  
Нелар кузатиб бўлгандир шоҳид.  
Кимлар ўтгандир бу йўлдан билмам,  
Кекса, мўйсафид, ўспирин ёхуд.

Йўллар, бағрингда кўпдир тамғалар,  
Қолибди ана арава изи,  
Унда янгалар айтгандир ёр-ёр,  
Келин ким? Фақир ё бойнинг қизи.

Йўллар.

Азизсан.

Нақадар улур.

Оддийсан.

Оддий қолавер шундай.

Бир ўзингдирсан дунёда фақат,  
Барчага тенгсан. Барчага бирдай.

Ана, келмоқда гавжум халойиқ,  
Елкада асраб хунук бир тобут.  
Ҳамма маъюдсир, қадди эгилган,  
Ўлган гадойми, бойми, сен унут.

Йўллар.


Донишманд, кекса, кайвони,

Келган меҳмонни манзилга элтар.  
Йўлнинг бормикин боши-охири,  
Бораримиз бир

Ва огоҳ этар.



# Kuz xayoli



2014/8 A 606	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
--------------------	--

## BIR OLMA OQIB KELAR

To'liqlar bag'rida o'ynoqlab shodon  
Oqib kelayotir oqizoq olma.

Atlasga burkangan qizlar singari

Tovlanib ko'z olar qizil-oq olma.

Qo'l cho'zib intilib olmani oldim,

Kelinchak yuziday tiniq va tekis.

Maysalar ustiga o'tirdim behol,


Mag'lub etdi meni oh, ajib bir his.

Hayrat-la tikilib boqdim suq bilan,

Ko'zim to'ymas sira, qanday ajoyib.

Birdan hurkib qochdim misoli ohu,

Uzoqda bir yigit turar jilmayib.



## **SOG'INCH**

Ey, Sabo, iltimos, sho'xligingni qo'y,  
Sochlarim tortqilab, yuzim silama.  
Vujudim kul bo'ldi hijron o'tida,  
Mehrga zorman-ku. Mehr tilama.  
Ne kerak gullarning xushbo'y islari,  
Ko'kdan keltirganing mayin harorat.  
Qaniydi yorimdan yetkazsang xabar,  
Keltirgan bo'larding quvonch va omad.  
Hoy erkam, bunchalar tumshayib olding,  
Senga ham bu mehrim yetar-ku, ammo  
Umrimdan kechardim haqqi rost so'zim,  
Uzoqdan yorimni bir ko'rsaydim, oh!

## **NEGA JIMSAN?**

Nechun jimsan go'yo gung, soqov,  
Mayli, indamay qo'yaver, faqat  
Sevmayman dema, og'riydi dilim,  
Eturman men ham unga itoat.  
Sen jimsan. Hamon o'ylaysan neni,  
Rahming kelmasin, o'tinchim ham shu.  
Qiyname o'zing. Menga kerakdir  
Muhabbat degan o'lmas bir tuyg'u.

## **QAYTISH**

Onajon, qaytyapman ortga jimgina,  
Go'zal tuyg'ularga silkib etagim.  
Egninga tashladim bir quroq janda,  
Nihoyat tugaydi go'zal ertagim.  
Muhabbat – ko'chada sotilgan gullar,  
Sadoqat – eskirmay tutilgan mato.  
Ishonch – qog'ozlarga muhrlangan so'z,  
Tug'ilmoqning o'zi aslida xato.

## **KECHIRING MENI**

Ko'nglingiz og'ritdim, kechiring meni,  
Onangiz bosh egib ketdi uyimdan.  
Mendan xato o'tdi, endi o'zingiz  
Ketmayin qoldingiz xayol, o'yimdan.  
Qalbimni tirnaydi bir savol bebosh,  
Men izlagan o'sha sizmidi, balkim.  
Ko'nglimda ko'tardi armon guli bosh,  
Sizday endi meni sevmaydi hech kim.

## **KO'NGLIM**

Ko'nglim, u ko'ngilga boshqa ko'nmaymiz,  
Yana biz deb kelsa yolg'ondan suyib.  
Muhabbat qasriga aslo bormaymiz,  
Sevgining o'tida kul bo'ldik kuyib.  
Ko'nglim, u ko'ngildan uzilib ketdik,  
Yaprog'i sochilgan misli atirgul.  
Nafrat-la eng baland cho'qqiga yetdik,  
Ayriliqlar qoldi estalik uchun.  
Ko'nglim, u ko'ngilga aldanib qoldik,  
Taqdirida bor ekan, ne ham qilardik.  
Barchasi ne bo'lsa xudoga solib,  
Allohdan unga biz jazo tilaylik.

## **KUZ XAYOLI**

Sogʻinib boryapman sizni tobora,  
Bolaligim oʻtgan aziz koʻchalar.  
Oy harir roʻmolin qoʻshqoʻllab oʻtgan,  
Sutdan-da oq-oppoq oydin kechalar.  
Sogʻinib boryapman oʻshal damlarni,  
Vujudim yayratgan koʻklam navosin.  
Tillarang yaproqlar qoʻynida bu kun  
Ezilib tinglarman armonlar sasin.  
Hayratga solgandi oʻshanda meni  
Insonlar koʻzida porlagan quyosh.  
Oʻtni lovullatgan qizlar yallasi,  
Ayvonga osilgan tikanak va tosh.  
Yosh edim, qalbmida yondi alanga,  
Tomirimda oqardi olov.  
Dadil yoʻl olgandim zabt etmoq uchun  
Baxtlar vodiysiga qoʻlimda asov.  
Yuragim yigʻlaydi titranib dilgir,  
Yuzimga ufurar qish ham havosin.  
Sochimga qoʻnadi qor parchalari,  
Bir tinglasam qani yoshlik navosin.  
Oh, yoshligim, taʼzim etaman sizga,  
Asta oʻtib borar endi umrimiz,  
Sogʻinib yashashdan iloj yoʻq oʻzga.

## SEVGI QIT'ASI

*O'zbekiston xalq shoiri  
Abdulla Oripovga bag'ishlanadi*

Serviqor Himolay bag'riga bir qiz  
Yelkasida ko'za ohista keldi,  
Uyalib tong misol suluv bir malak,  
Suv bahona yorin qoshiga yeldi.  
Ikki qalb uchrashdi sohilda yolg'iz,  
Tashakkurin aytib quvnoq buloqqa.  
Ikkisi unutdi dunyo g'amini,  
Keldi shivirlashi arang quloqqa.  
Ularni yashirdi bag'riga tog'lar,  
Quv nab raqs tushar buloqcha shodon.  
Sevgan ko'ngil albat bir kun sevilur,  
Gar hukmron dilda ishonch va iymon.  
O, go'zal Hindiston, maftunkor diyor,  
Ona yer sharining nurli nuqtasi.  
Dunyo yaralmishki yashar muhabbat,  
Kuyla qo'shig'ingni, sevgi qit'asi.

## MEN GUL DEMASMAN

Meni ko'rib bir kun oldimga kelding,  
Sog'lig'im so'rading uyalibgina,  
Bir xat tutib deding asta  
Muhabbatim haqqi o'ylab ko'rgin-a.  
Shundan beri poylab yo'limni har kun,  
Nega gul tutasan, men gul demasman.  
Chin sevgi o'lchanmas mol-dunyo bilan,  
Sevging chin bo'lmasa dildor emasman.

\* \* \*

Meni yo'qsil demang, sirayam demang,  
Sizday oy bor ekan, menda quyosh bor.  
Nahotki aybim shu – sizni suyganim,  
Siz yor bo'lmasangiz, xudo menga yor.  
Gumonning poyida ishonchni ko'rib,  
Yoriltosh yorilib ketmadi nechun.  
Jin ko'chalarida taqdir deganni,  
Muhabbat yig'laydi titranib beun.  
Bardoshi yetarmi bunga tog'larning,  
Osmon ham egilar yana bir qancha.  
Baribir aldamchi asli bu dunyo,  
Mening ishonganim shugina g'uncha.  
G'unchami deb kulmang labingiz burib,  
Uning bag'rida yangi hayot bor.  
Mitti demang sira, qalbida yorim  
Olamga sig'magan ajib bayot bor.



## **ISHONCH NURLARI**

Qalbingiz to'rida o'zga jonona,  
Aning poygagida men bechora qiz.  
Tosh sindirar emish javohirni ham,  
Kimning qadri ulug' bilarmidingiz.  
Sizni ko'p o'yladim, o'ylab tolmadim,  
Faqat kutib ko'zlar charchadi xolos.  
Entikib-entikib yurak qoldi jim,  
Ko'zlarimda so'ndi shodlik, ehtiros.  
Sizdan so'ramayman ko'p narsalarni,  
Mehringizni bering, ruhim unga zor.  
Tinglang majnunsifat bir qiz o'tinchi,  
Sizni unutishni istamayman yor.  
Shunchalik tormidi ishqning yo'llari,  
Gumonlar ko'nglimga yetkazar ozor.  
Ishqning navolari bunchalar mahzun,  
Ishonch nurlaridan barchasi bekor.

## **MENGA ISHON**

Surishtirma meni, qo'ygil azizim,  
Menga tikilmasin odamlar ko'zi.  
Faqat menga ishon, unutma hech ham,  
Dunyoda begunch Allohning o'zi.  
Muhabbat onamdir,  
Vijdon – padarim,  
Muhammaddan meros iymon – o'zligim.  
Shabnam quchog'ida yashadim toki,  
Uchraguncha sen – shirin so'zligim.  
Chiroyda kumushga tenglasholmasman,  
Lek vafodan undan o'zaman albat.  
Beklardan ulug'san, mening begim,  
Sho'x qalbinga sirtmoq solmish muhabbat.  
Mayliydi sevgilim soyda oqmasang,  
Zuhro deb o'rtangan Tohir singari.  
Majnun bo'lmasang-da ishqimda mening,  
Birga yashasak bas gumondan nari.  
Odamlar bor azizim, farishtaday pok,  
Odamlar bor azizim, iblisdan-da past,  
Yo'g'ingni ko'radi berolmas ammo –  
Boringni ko'rgach esa yana qilar qasd.

## **SHABNAM JILOSI**

Yuragim tubida kaftdek lahcha cho'g',  
Kuydirib boradi etguday ado.  
Chidolmay qolaman bunday azobga,  
Unda dard isyoni beradi sado.  
Miyanda raqs tushar fikrlar g'ujg'on,  
Men bir sayyod. Ular tog'dagi kiyik.  
To'ldirib kosaga to'yib ichsam may,  
Qalbimda yaralur ajib go'zallik.  
So'ngra yonib, kuyib ishq azobida,  
O'zgalarga quvonch ulashib, ammo  
Hayotni o'lchayman o'z qarichim-la.  
Chinga aylantirib afsona ro'yo.  
Quyosh bosh ko'tarar qora tun haydab,  
Ko'nglimda yashnaydi bahoriy surur.  
Shabnamga bitarman yorqin misralar,  
O'sha siz bilgan dard ShE'R deb atalur.

### **QALB SADOSI**

Sochlarim arqonga aylanmasa gar,  
Maqsadlar bo'yniga kamon solguday.  
Shiddatim paykonga tenglashmay qolsa,  
Qabohat yuragin o'yib olguday.  
O'zim uchun faqat to'kilsa ko'zyosh,  
Shirinroq luqma deb umrim boy bersam.  
O'zligim anglamay o'zgalarni men,  
Sochgan sadaqasin minnatdor tersam.  
Men ham insonmidim, inson bo'ldimmi?  
Hayot garmselida g'uncha so'ldimmi?  
Ko'nglimdan so'rayman aytgil, yuragim,  
Xalqimga munosib farzand bo'ldimmi?

## **IZLADIM**

Aytgil, ey, Allohim gunohim nedir,  
Go'zal tong vasliga etding meni zor.  
Oftobni sog'inar bu ma'sum ko'zlar,  
Peshonamga bitding anduhni bisyor.  
Senga yoqay dedim, do'stu g'animni  
Avaylab yashayverdim birday sizlab.  
Ko'zda nur qolmadi, tanimda mador,  
Odamlar ko'nglida iymonni izlab.

## YO'LLAR

Yo'llar...

Bu keng dunyoga mezbondir, mezbon,  
Nelar kuzatib bo'lgandir shohid.  
Kimlar o'tgandir bu yo'ldan bilmam,  
Keksa, mo'ysafid, o'spirin yoxud.

Yo'llar, bag'ringda ko'pdir tamg'alar,  
Qolibdi ana arava izi,  
Unda yangalar aytgandir yor-yor,  
Kelin kim? Faqir yo boyning qizi.

Yo'llar.

Azizsan.

Naqadar ulug'.

Oddiysan.

Oddiy qolaver shunday.

Bir o'zingdirsan dunyoda faqat,  
Barchaga tengsan. Barchaga birday.

Ana, kelmoqda gavjum xaloyiq,  
Yelkada asrab xunuk bir tobut.  
Hamma ma'yusdir, qaddi egilgan,  
O'lgan gadoymi, boymi, sen unut.

Yo'llar.

Donishmand, keksa, kayvoni,  
Kelgan mehmonni manzilga eltar.  
Yo'lning bormikin boshi-oxiri,  
Borarimiz bir  
Va ogoh etar.

## МУНДАРИЖА

ИЖОД ОЛАМИДА УЛҒАЙГАН ИЖОДКОР .....	3
Бир олма оқиб келар .....	4
Соғинч .....	5
Нега жимсан? .....	6
Қайтиш .....	6
Кечиринг мени .....	7
Кўнглим .....	8
Мен гул демасман .....	8
Куз хаёли .....	9
Севги қитъаси .....	10
«Мени йўқсил...» .....	11
Ишонч нурлари .....	12
Менга ишон .....	13
Шабнам жилоси .....	14
Қалб садоси .....	15
Изладим .....	15
Йўллар .....	16
Bir olma oqib kelar .....	18
Sog'inch .....	19
Nega jim-san? .....	20
Qaytish .....	20
Kechiring meni .....	21
Ko'nglim .....	21
Kuz xayoli .....	22
Sevgi qit'asi .....	23
Men gul demasman .....	23
«Meni yo'qsil...» .....	24
Ishonch nurlari .....	25
Menga ishon .....	26
Shabnam jilosi .....	27
Qalb sadosi .....	28
Izladim .....	29
Yo'llar .....	30

2000 с.ш.

Адабий-баддий нашр

ДИЛДОРА ТУРДИЕВА

**КУЗ ХАЁЛИ**

*Шеърлар*

Муҳаррир

Гавҳар МИРЗАЕВА

Мусаҳҳиҳ

Феруза ШОСАИДОВА

Баддий муҳаррир

Уйғун СОЛИХОВ

Компьютерда саҳифаловчи

Феруза БОТИРОВА

Босишга 28.10.2013 й да ружсат этилди.

Бичими 84x108 1\32.

Босма тобоғи 1,0. Шартли босма тобоғи 1,68.

Гарнитура «Bookman Суг+Uzb».

Адади 1000 нусха. Буюртма № 249.

Баҳоси келишилган нархда.

«Янги аср авлоди» НММда тайёрланди.

«Ёшлар матбуоти» босмахонасида босилди.

100113. Тошкент, Чилонзор-8, Қатортол кўчаси, 60.

**Мурожаат учун телефонлар:**

Нашр бўлими – 278-36-89;

Маркетинг бўлими – 128-78-43

факс — 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru